


XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul)


2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 277764,5 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 196,1%ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 96397,8 ming AQSH dollarga (168,5%ga ko'paygan) va import hajmi 181366,7 ming AQSH dollariga (o'sish sur'ati 2,1 marta)ga etdi. Tashqi savdo saldosini minus 84969,0 ming AQSH dollarini tashkil qildi.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi
(ming AQSH dollari)



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi
(ming AQSH dollari)




2019 yil yanvar-iyul oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning boshidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar
(ming AQSH dollari)


Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Xitoy	68003,5	3666,6	64336,9	24,5	2,1 m.
Rossiya	43434,4	17371,8	26062,6	15,6	100,5
Qirg'iziston	35395,6	34826,9	568,7	12,7	48,3 m.
Turkiya	25474,2	5774,5	19699,7	9,2	2,4 m.
Qozog'iston	20986,5	14784,3	6202,2	7,6	159,2
Latviya	14697,4	0,5	14696,9	5,9	3,0 m.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 42,5%ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 186,2%ni tashkil qildi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019 yilning yanvar-iyul oylarida 57,5%ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 martagacha o'sdi.

Tashqi savdo aylanmasidagi MDX mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi (ming AQSH dollari)



Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSH dollari)



Paxta tolasi	Qora va rangli metallar
Oziq-ovqat mahsulotlari	Mashina va asbob-uskunalar
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	Xizmatlar
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	Boshqalar


Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	96397,8	168,5	100,0	77663,1	2,2 m.	100,0	18734,7	88,9	100,0
Paxta tolasi	3787,6	41,8	3,9	191,6	188,8	0,2	3596,0	40,1	19,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	57677,1	4,3 m.	59,8	52696,7	4,3 m.	67,9	4980,4	4,5 m.	26,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	500,5	66,6	0,5	280,0	59,4	0,4	220,5	78,5	1,2

Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	883,8	4,9 m.	0,9	657,5	0,0	0,8	226,3	12,6 m.	1,2
Qora va rangli metallar	75,2	0,0	0,1	75,2	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0
Mashina va asbob - uskunalar	26,7	44,2	0,1	21,9	36,3	0,1	4,8	0,0	0,0
Xizmatlar	7290,0	168,9	7,6	5383,5	198,5	6,9	1906,5	4,4 m.	10,2
Boshqalar	26156,9	88,4	27,1	18356,7	95,1	23,6	7800,2	75,8	41,6


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyul oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, %)





Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 68,5%ga ko'paygan.

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi (oylar kesimida, ming AQSH dollari)



Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSH dollari)



- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- Qora va rangli metallar


- Mashina va asbob-uskunalar
- Xizmatlar
- Boshqalar

Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	181366,7	2,1 m.	100,0	40520,1	148,3	100,0	140846,6	2,5 m.	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	7324,3	95,9	4,0	5932,6	2,0 m.	14,6	1391,7	29,4	1,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	8650,4	81,2	4,8	5089,4	127,8	12,6	3561,0	53,3	2,5
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	307,5	3,1 m.	0,2	291,0	5,6 m.	0,7	16,5	33,8	0,0
Qora va rangli metallar	3034,7	119,0	1,7	1231,9	85,7	3,0	1802,8	161,7	1,3
Mashina va asbob-uskunalar	100440,3	2,3 m.	55,4	3931,8	138,5	9,7	96508,5	2,4 m.	68,5
Boshqalar	61609,5	2,9 m.	33,9	24043,4	149,2	59,4	37566,1	8,2 m.	26,7


Import qilingan tovar va xizmatlarning o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyul oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko'paygan.

Tashqi savdo aylanmasida Import dinamikasi (oylar kesimida, ming AQSH dollari)




Viloyat tovar va xizmatlar importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

2018 YIL
YANVAR-IYUL



2019 YIL
YANVAR-IYUL



Xitoy	Xitoy
Rossiya	Rossiya
Germaniya	Turkiya
Latviya	Latviya
Qozog'iston	Koreya
Turkiya	Niderlandiya

2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatga 45 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Latviya, Koreya va Niderlandiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 145571,5 ming AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 80,3 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:62-224-65-09**